

## QORAQALPOG'ISTON INTERNET JURNALISTIKASI

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi  
**Sharafatdinova Malika Berdaq qizi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qoraqalpog'istona OAVlarida data jurnalistikaning o'rni va qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, Kazinform, Kruz.uz va Kar24.uz internet nashrlarida e'lon qilingan materiallar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Data, infografika, statistika, fakt, diagramma.

Data jurnalistika jurnalistikaning bir turi bo'lib, unda muxbirlar katta ma'lumotlar to'plamidan foydalangan holda hikoyalar yaratadilar. Bu axborotni ishlab chiqarish va tarqatishda raqamli ma'lumotlarning ahamiyati ortib borayotganini, shuningdek, jurnalistlar va dizayn, informatika va statistika kabi kasblar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Infografika va ma'lumotlar vizualizatsiyasidan foydalanish orqali esa ma'lumotlar jurnalistikasi murakkab hikoyani aytib berishga yordam beradi. 13 Data jurnalistika hozir Markaziy Osiyo davlarida sekin astalik bilan rivojlanib kelmoqda. Birnechta davlat media vakillari esa ushbu sohani allaqachon yaxshi o'zlashtirib bo'lib qiziqarli data materiallar tayyorlab kelmoqda. Lekin ushbu soha Qoraqalpg'iston mediasida yaxshi ommalashgan deb aytish qiyin.

Chunki hozir Qoraqalpogostinning biron bir mediasida data materiallar uchratmaysiz. Ushbu soha bo'yicha shug'llanadiagan biron-bir data jurnalist ham yo'q. Lekin bundan birnechta yillar avval Kazinform internet nashrida ko'plab data materillar e'lon qilingan. Ya'ni ushbu saytni data materiallar tayyorlashda eng ko'zga ko'ringan internet nashri sifatida aytishimiz mumkin.

Saytdagi dastlabki infografika esa 2017-yili “Tumanlardagi aholi sonini bilasizmi?” sarlafhasi bilan e'lon qilingan. Unda Qoraqalpog'istondagi tumanlarda qancha aholi yashashi haqida umumiylar ma'lumotlar beriladi. Infografika — inglizcha axborot grafikasi, ma'lumotlarning vizual tasviri degan ma'noni anglatadi. Infografikada ma'lumotlar doiraviy diagrammalar va shtrixli grafiklar, minimal matn va tasvirlar ko'rinishida beriladi. Ba'zi manbalarda esainfografika-axborot bilim va ma'lumotlarni grafikako'rinishdayetkazish deyata'riflanadi. Shundanboshlan nashrda yangiliklarni infografika shaklida berish ommalashgan. Shu sababdan ham Respublikada data materillar e'lon qilishdaeng asosiy sayt sifatida ham ushbu nashrni aytishimiz mumkin. Chunki saytdagi yangiliklarni

ko'zdan kechirish davomida ko'plab infografikalarga ko'zimiz tushdi. Keling ular orasida ko'pchilikda qiziqish uyg'otgan bitta data materialni tahlil qilsak. "Qoraqalpog'istonda so'nggi 30 yil ichida tug'ilgan chaqaloqlarga berilgan nomlarning tarixiy statistik tahlili" sarlavhali material eng yaxshi tayyorlangan data materiallardan biridir.. Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida jurnalist 1 206 603 maqolani o'rganib, qayta ishlab chiqqan va eng saralarini taqdim etgan.

Undagi keltirgan tahlil qilingan materuallar esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat xizmatlari agentligining materiallari asosida tayyorlangan. Maqolada dastlab 1991-2020-yillarda tug'ilgan o'g'il va qiz bolalarga eng ko'p berilgan ismlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'iladi va ularning TOP-10 ni yaratiladi. Ularni aniq tushuntirish maqsadida esa infografika animatsiya tarzida tayyorlanadi. Ushbu materialga jurnalist professional tarizda yondashgan va taqdim etmoqchi bo'lgan yangilagini ochiq ta'rizada yetkazib bera olgan. Ushbu data materialning ko'pchilikda qiziqish uyg'otishigsa sabab vizualizatsiya yaxshi qilingan. Infografikada ranglar ham yaxshi tanlangan. Shuningdek 2022-yillarda ushbu saytdan tashqari mediada ma'lumotlarni infografika shaklida berishda Kruz.uz va Makan.uz internetnashrlari ham faol bo'lishgan. Lekib bu tahlil qilingan materiallar emas balki statistika agentligi tominidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar hisoblanadi. Ammo Kar24.uz saytida esa nafqat infografika balki qiziqarli data material ham tayyorlangan. Masalan, shu paytgacha Google'dan "Qoraqalpoq tili" so'zi 3111 marotaba izlangan" sarlavhali maqolani ko'rib chiqsak. Ushbu material Google Trends orqali tayyorlangan noaditiy materiallardan biridir.

Maqolada 2011-yildan 2021-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida Google qidiruv tizimi orqali butun dunyo bo'ylab "Каракалпаксийязик" so'zi qancha marotaba qidirilgani aniqlanadi. Bundan tashqari, Qoraqalpog'istondagi 132 qal'aga qachon turistlar keladi? Nomli data material ham Qoraqalpoq mediasida e'lon qilingan dastlabki data materiallar hisoblanadi. Unda asosan Qoraqalpog'istonda qancha tarixiy obidalar borligi aniqlanadi. Shundan so'ng esa ularning qanchasiga turistlar kelishi haqida ham ma'lumotlar beriladi. Aniqlanishicha, so'nggi 4-5-yilda Qoraqalpog'istonga kelgan sayyoohlar asosan Savitskiy muzeyi, yoki Mo'ynoqdagi "Kemalar qabristoni", va yoki Amudaryodagi "Chilpiq" dan qaytdi.

Aslida bu maskanda 132 dan ziyod arxeologik obyektlar mavjud bo'lib ulardan faqat 37 tasiga xorijiy va mahalliy sayyoohlar borar ekan. Buning sabab o'rganilganda esa ko'p turistik joylarning xaritaga kiritilmaganligi aniqlangan. Ushbu data materillar bundan bir necha yil ilgari tayyorlangan. Lekin yaqin

yillardan buyon biron bir mediada data materiallar umuman ko’zga tashlanmayabdi. Hattoki qisqa formatda infografikalar ham yo’q. Qoraqalpog’istonda data jurnalistika bo'yicha seminar treyninglar tashkillashtirilgan va Respublikadagi univevrsittda data jurnalistika fani talabalarga o'rgatilsa ham haligacga ijobiy natiyja ko'rinxmayabdi. Ushbu sohani yaxshi o'zlashtirgan jurnalistlardan so'rab ko'rganimizda esa ochiq ma'lumotlarnin kamligi va data material tayyorlash uzoq vaqtini olishini ma'lum qildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jurnalistning so'zi, yozayotgan maqolasi, tayyorlayotgan ko'rsatuv va eshittirishi jamiyatda hal qiluvchi kuchga ega. U davlat va xalqning ayni davrdagi kayfiyatini o'zida aks ettiradi. Shunday ekan, jurnalist o'z pozitsiyasiga ega bo'lishi, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo'yishi, savodli, kuzatuvchan bo'lishi lozim. Jurnalistikaning rivojini nazariyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, internet-jurnalistika sohada yangi davrni boshlab berdi. Mamlakatda internet OAVlar soni ko'payib borayotgani kishini quvontiradi. Biroq, bu sohada kadrlar tanqisligi sezilayotgani, jurnalistika fakultetlarida onlayn-jurnalistika bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga e'tiborning sustligi, O'zMU Jurnalistika fakultetida Internet jurnalistikasi kafedrasi faoliyatining tugatilganligi, nazariy va amaliy bilimga ega bo'lgan pedagoglarning yetishmasligi, o'zbek tilidagi o'quv qo'llanmalar, sohaga oid adabiyotlarning ozligi sohada qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois:

- jurnalistika fakultetlarida onlayn-jurnalistika kafedralarini tiklab, nazariy va amaliy bilim hamda tajribaga ega mutaxassislarni dars jarayonlariga jalb etish, darslarni saytlar tahririylarida tashkil etish;
- internet OAVlarida tarqalayotgan xabarlarning chek-chegarasi yo'qligi, qamrovi kengligi, yolg'on axborotlar ham yashin tezligida dunyoning narigi chekkasiga yetib borayotganini inobatga olib, bunday axborotlarning tarqalishiga nisbatan vaksina sifatida har bir internet OAV ta'sis hay'ati yoki tahririylar kengashiga jurnalist diplomiga ega bo'lgan bitta bo'lsa ham professional jurnalistni kiritish;
- O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi OAVlarda muxbir, “kopirayter”, tarjimon reportyorlar bazasini yaratish, ommaviy axborot vositalari uchun professional jurnalistlar taqsimotini yo'lga qo'yish;
- jurnalistika fakultetlarini tugatgan, ammo ish bilan ta'minlanmagan kadrlar uchun alohida aloqa markazi yoki portal tashkil etish;
- mavjud OAVga doir milliy qonunchilikka internet OAVga daxldor o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
- milliy professional jurnalistlar etikasi qoidalarini ishlab chiqish;

– internet jurnalistikaga doir o’quv qo‘llanma va darsliklar chop etish kabilarga keng ahamiyat qaratish joiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Majumder. P. What is Data Journalism all about? - URL: <https://www.analyticsvidhya.com/blog/2022/01/what-is-data-journalism-all-about/> (15.03.2022).
2. Районлардағы халықтың санын билесиз бе? (Инфографика). – URL: <https://t.me/karinformuz/613> (14.12.2017).
3. McGuire.S. What Are the 9 Types of Infographics? (+Infographic Templates).— URL: <https://venngage.com/blog/9-types-of-infographic-template/>
- 4.Qosimova N. Onlayn Jurnalistika.-T. Darslik. 253-bet.
5. Shu paytgacha Google’dan “Qoraqalpoq tili“ so‘zi 3111 marotaba izlangan. – URL: <https://t.me/Kar24Uz/18238> (05.12.2021).



---

# Research Science and Innovation House